O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

*ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI*

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH**

**fanidan**

**SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN**

# USLUBIY KO’RSATMA

**NAMANGAN-2019**

Ushbu uslubiy ko'rsatma O'zR OO'MTVning 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Mutaxassislikka kirish" fanining na'munaviy dasturi talablari asosida ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy koʻrsatma oliy oʻquv yurtlari Arxivshunoslik ta'lim yoʻnalishining bakalavriat bosqichi talabalari uchun tayyorlangan boʻlib, unda arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarga oid atamalar bo`yicha bilimlar, ko`nikma va malakalar berish belgilab berilgan.

**Ma'sul muharrir:** **A. A. Sarimsoqov**
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:** **B. R. Xalmuratov**
PhD, katta o'qituvchi
**N. B. Dexkanov**
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti oʻquv-uslubiy kengashining 2018- yil 28- noyabrdagi 7- sonli yigʻilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**B. B. Abbasov**

Mutaxassislikka kirish. (Seminar mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatma).

– Namangan, 2019. – 56 b.

**© Namangan Davlat Universiteti**

# KIRISH

Milliy tarix o‘zining barcha ibratli namunalari bilan milliy mafkuraning muhim tarkibiy qismi bo‘lishi kerak. Chunki buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat namunasi, ularni ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash manbai hisoblanadi. Xolisona yoritilajak tarix millatning murabbiysiga aylanishi lozim.

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligini tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy asoslarini shakllantirish, tadqiqotlarni zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, davlatchiligi haqqoniy tarixini tarixiy manbalar asosida o‘rganish, ish yuritish va arxiv ishi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish vazifalari belgilangan. Tasviriy va audio materiallar tarixiy manba sifatida. Audiovizual va elektron arxivlar, hujjatlar va avtomatlashtirilgan qidiruv tizimi fanini o‘qitish malakaliy arxivshunos kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Mustaqillik yillarida arxivshunos, ish yurtituvchi mutaxassislarni tayyorlashda bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini saqlash va ularda ilmiy-amaliy maqsadlarda foydalanish sifatini oshirishda arxivshunos, ish yurituvchi kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat qasb etadi. Shuningdek, tashkilot, korxona va muassasalarda ish yuritishni tashkil etish, hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va tartibga solishni o‘rgatish jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammaolarni tartibga solishni ta’minlaydi.

Tasviriy va audio materiallar tarixiy manba sifatida. Audiovizual va elektron arxivlar, hujjatlar va avtomatlashtirilgan qidiruv tizimi bilan tanishtirish orqali zamonaviy talablarga javob beruvchi malakali arxivshunos va ish yurituvchi mutaxassislarni tayyorlashga xissa qo‘shishdan iborat.

Shuningdek, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘rsatib o‘tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish,

tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to‘la bahramand bo‘lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko‘maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo‘lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o‘rganadi.

## 1-MAVZU: O’ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TARIXI

Reja:

1. Tarix fakultetining tashkil topishi va faoliyati.
2. Mustaqillik yillarida fakultetdagi o‘quv va ilmiy jarayonlar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda “Milliy Universitet” to’g’risida tushunchalar hosil qilish.

**E’tibor bering:** XX asrning 20-yillarida Moskva va Leningrad shaharlaridan ilmiy muassasa va oliy o‘quv yurtlari, ular bilan birgalikda yirik olimlar va o‘qituvchilar Toshkentga ko‘chirila boshlandi. Ular orasida akademiklar B.D.Grekov, R.V.Vitter, V.V.Struve, Sobiq Ittifoq FA muxbir-a’zolari V.I.Picheta, A.Yu.Yakubovskiy, E.A.Udalsov, professorlar M.V.Nechkina, Sn.Valk, B.E.Shteyn, I.I.Polosin, A.V.Predtechenskiy, N.N.Stepanov, A.I.Anekshteyn, M.V.Lev-chenko, I.P.Petrushevskiy, A.N.Bernshtam, L.V.Voronin, G.A.Knipovich, V.B.Smirnov, dotsentlar A.S.Nifontov, E.D.Chernishevskiy va boshqalar bor edi. Mavzu bo'yicha asosiy adabiyot va manbalarni o’rganib chiqish.

Mustaqillik yillarida Universitetning talaba, aspirant va yosh o‘qituvchilarini ta’lim olishlari, stajirovka o‘tashlari va ma’ruza o‘qishlari maqsadida Yevropa mamlakatlariga yuborillarini o’rganib chiqish.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

**Savollar.**

1. Universitetning tashkil topish tarixi?

2. Dastlab qaysi fanlar o'qitilgan?
3. Sovet davrida Universitet qaysi chet davlatlar bilan hamkorlik qilgan?
4. Siz Universitet haqida nimalar bilasiz?
5. Universitetdagi fakultetlarning o'tgan asrning 30-40-50-yillardagi o'quv va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumot bering.
6. Mustaqillik yillarida Universitetning o'quv ishlaridagi o'zgarishlarni sanang.
7. Milliy Universitetning xalqaro va ilmiy aloqalari nimalardan iborat?

**Tayanch iboralar:** O'zMU, Fakultet, Tarix, O'zbekiston, Milliy, Oliygoh, Ta'lim, Tarbiya, O'quv jarayoni.

**Adabiyotlar**


1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кириш. Ўкув қўлланма. – Т., 2006.
2. Саъдиев А. XIX асрда Туркистонда тарих фани. – Т.: Ўздавнашр. 1960.
3. Ташкентский Государственнмй Университет имени В.И.Ленина. –Т.: Ўзбекисгон. 1990.
4. Азизов Ш.А. Тошкент Давлат университетида гуманитар-ижтимоий фанларнинг ривожланиши, –Т.: Университет. 1995.
5. ТошДУ илм ва маърифат маскани. –Т.: Университет. 1995.
6. Халикова Р.Х. Развитие вшсшего исторического образования и науки в Узбекисгане (На примере исторического факультета ТашГУ (1935-1994 гг). Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Т., 1995.
7. Холбоев С. Миллий университетнингтарихий илдизлари ва ташкил топиши. –Т.: Шарқ. 2003.


## 2-MAVZU: TARIX FAKULTETI: TARIXI VA HOZIRGI FAOLIYATI.

Reja:

1. Tarix fakultetining tashkil topish tarixi.
2. Mustaqillik yillarida tarix fakulteti.
3. Tarix fakultetining aloqalari.

**Darsning maqsadi:** Mutaxassislikka kirish fani, uning shakllanish tarixi, Tarix fakultetining o'rni, Sovet davrida tarix fakulteti, Mustaqillik yillarida tTarix fakuteti haqida ma'umot berishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** 1935 yil O'rta Osiyo Davlat universitetida tarix fakulteti ochildi. Fakultet ochilgan paytda uning tarkibida qadimgi tarix, o'rta asrlar va yangi tarix kafedralari mavjud edi. 1937 yilda ular umumiy tarix kafedrasiga birlashtirilib, yangidan SSSR xalqpari tarixi kafedrasi tashkil etildi. Keyinroq esa O'rta Osiyo xalqlari tarixi (1938) va arxeologiya (1939) kafedralari ham ochildi. 90-yillarga kelib, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarix fakultetidagi ilmiy, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham yangicha ruh, yangicha tarixiy qarashlar asosida qaytadan jonlandi.

Ta'lim jarayoni bakalavriat (4 yil) va magistratura (2 yil) asosida tashkil etildi. Magistraturada O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, arxeologiya, etnologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik, xalqaro munosabatlar tarixi, tarixchi-arxivshunos ixtisosliklari bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Sovet davrida tarix fakultetining faoliyati qanday?
2. Mustaqillik yillarida tarix fakultetining faoliyati qanday?
3. Tarix fakultetining yutuq va kamchiliklari?
4. Qaysi davrda Tarix fakulteti rivojlanadi?
5. Tarix fakultetining tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalar deb o'ylaysiz?

**Tayanch iboralar:** Tarix, fakultet, Etnologiya, Muzeyshunoslik, Arxeologik, Arxivshunoslik, bakalavriyat, magistr, asperantura, doktrarantura.

**Adabiyotlar**

1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кириш. Ўкув қўлланма. – Т., 2006.
2. Саъдиев А. XIX асрда Туркистонда тарих фани. – Т.: Ўздавнашр. 1960.
3. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
4. Ташкентский Государственнмй Университет имени В.И.Ленина. –Т.: Ўзбекисгон. 1990.
5. Азизов Ш.А. Тошкент Давлат университетида гуманитар-ижтимоий фанларнинг ривожланиши, –Т.: Университет. 1995.
6. ТошДУ илм ва маърифат маскани. –Т.: Университет. 1995.
7. Халикова Р.Х. Развитие вшсшего исторического образования и науки в Узбекисгане (На примере исторического факультета ТашГУ (1935-1994 гг). Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Т., 1995.
8. Холбоев С. Миллий университетнингтарихий илдизлари ва ташкил топиши. –Т.: Шарқ. 2003.

## 3-MAVZU: TARIXCHI-ARXIVSHUNOS MUTAXASSIS TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Reja:

1. Tarixchi mutaxassis tayyorlashning o'ziga xos hususiyati
2. Arxivchi mutaxassis tayyorlashning o'ziga xos hususiyati

**Darsning maqsadi:** Mutaxassislikka kirish fani, uning shakllanish tarixi, tarixchi mutaxassislarning tayyorlashning o'ziga xos hususiyati, Tarixchi-arxivchi tayyorlashning usullari, Xozirgi kunda Tarix fakultetida tarixchi-arxivchi kadrlarning tayyorlashning zamonaviy texnik vositalar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Fakultetda yosh ilmiy xodimlarni aspirantura orqali tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'tgan asrning 70-80-yillarida tarix fakultetida 14 aspirant va tadqiqotchilar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishgan. Hozirda ham bu ishlar faol davom ettirilmoqda.

90-yillarga kelib, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarix fakultetidagi ilmiy, o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham yangicha ruh, yangicha tarixiy qarashlar asosida qaytadan jonlandi.

Ta’lim jarayoni bakalavriat (4 yil) va magistratura (2 yil) asosida tashkil etildi. Magistraturada O‘zbekiston tarixi, jahon tarixi, arxeologiya, etnologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik, xalqaro munosabatlar tarixi, tarixchi-arxivshunos ixtisosliklari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

Magistraturadagi ta’lim jarayonlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix, Sharqshunoslik, O‘zbekiston Markaziy Davlat Arxivi, O‘zbekiston Kino-foto-fono hujjatlar Markaziy Davlat Arxivi, O‘zbekmuzey va boshqa ilmiy muassasalar bilan yaqin hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan.

2003-2004 o‘quv yilidan boshlab tarix fakulteti uchun yangi yo‘nalish «Tarixchi-arxivshunos» mutaxassisligi bo‘yicha talabalar qabuli boshlandi. Mazkur sohada o‘zbek guruhlari uchun qabul kvotalarining ajratilishi avvalo, sohaga yangi bilm va texnologiyalarni o‘zlashtirgan mutaxassislar zarurligidan kelib chiqqan bo‘lsa, ikkinchidan, respublikamizdagi markaziy va mahalliy arxivlarni shu yerlarda yashovchi mahalliy yoshlar bilan ta’minlash tadbirlari rejalashtirilgan.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

### Savollar

1. Qachondan boshlab fakultetda tarixchi mutaxassis tayyorlash boshlangan?
2. Milliy Universitetning Tarix fakultetini tugatgan qaysi mashhur shaxslarni bilasiz?
3. Mustaqillik yillarida arxivchi mutaxassislar qachondan boshlab tayyorlash boshlangan?

**Tayanch iboralar:** Arxevium , arxiv, tarix, yunoncha, lotincha, mutaxassis, manbashunos, yodgorlik, hujjat, namlik, boshqaruv, ekspertiza.

**Adabiyotlar**


1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кириш. Ўкув қўлланма. – Т., 2006.
2. Саъдиев А. XIX асрда Туркистонда тарих фани. – Т.: Ўздавнашр. 1960.
3. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Ташкентский Государственнмй Университет имени В.И.Ленина. –Т.: Ўзбекисгон. 1990.
6. Азизов Ш.А. Тошкент Давлат университетида гуманитар-ижтимоий фанларнинг ривожланиши, –Т.: Университет. 1995.
7. ТошДУ илм ва маърифат маскани. –Т.: Университет. 1995.
8. Халикова Р.Х. Развитие вшсшего исторического образования и науки в Узбекисгане (На примере исторического факультета ТашГУ (1935-1994 гг). Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Т., 1995.
9. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.
10. Холбоев С. Миллий университетнингтарихий илдизлари ва ташкил топиши. –Т.: Шарқ. 2003.


## 4-MAVZU: TARIXIY BIBLIOGRAFIYA VAZIFASI VA TARIX FANLARINI O’RGANISHDAGI O’RNI

Reja:

1. Bibliografiya haqida ma’lumot.
2. Biobliografiya faning tarix bilan bog’liqligi.
3. Bibliografiyani tarix fanida o’rganish.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda bibliografiya fani haqida ma’lumotlarni o’rganishni ko’zda tutadi.

**E’tibor bering:** Bibliografiya (yunoncha *biblion*-kitob va .... grafiya) - matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma’lum

ijtimoiy maqsadlarda targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi. Bibliografiya mahsulotlari, nazariyasi, tarixi, faoliyatini tashkil etish va uslubiyati bilan shug‘ullanadigan fan bibliografiya fani deb ataladi. Bibliografiya taraqqiyotini turli xil bibliografik ma’lumotnoma adabiyotlarini tuzadigan maxsus tashkilotlar (bibliografiya xizmati) tizimi ta’minlaydi.

Biografik asarlarga muallif belgisi biografiyasi tasvir qilingan shaxsning familiyasiga qarab beriladi va muallif belgisiga asarni yozuvchining birinchi harfi qo‘shiladi. Bu tartib ayrim shaxslarning biografiyalarini polkada bir joyda to‘plashga imkoniyat beradi.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

**Savollar.**

1. Bibliografiya nima?
2. Jahonning yirik tarixiy bibliografiyalari haqida Internet veb-sahifalaridan ma’lumot to‘plang.
3. O‘zbekistonda bibliografiyashunoslikning rivoji haqida nimalarni bilasiz?

**Tayanch iboralar:** Biblio, graphos, adabiyot, alfavit, ro’yhat, adabiyotlar ro’yhati, raqamli tartib, mantiqiy tartib, katalog, ilmiy malumotnoma apparati.

**Adabiyotlar**


1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кириш. Ўкув қўлланма. – Т., 2006.
2. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
3. Симон К.Р. Исгория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Халикова Р.Х. Развитие вшсшего исторического образования и науки в Узбекисгане (На примере исторического факультета ТашГУ (1935-1994 гг). Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Т., 1995.
6. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.

## 5-MAVZU: BIOBLIOGRAFIYANING ASOSIY TURLARI

Reja

1. Bibliografiya haqida ma’lumot.
2. Jahonning yirik tarixiy bibliografiyalari.
3. Bibliografiyashunoslik asoslari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda bibliografiya fani haqida ma’lumotlarni o’rganishni ko’zda tutadi.

**E’tibor bering:** Bibliografiya (yunoncha *biblion*-kitob va .... grafiya) - matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma’lum ijtimoiy maqsadlarda targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi. Bibliografiya mahsulotlari, nazariyasi, tarixi, faoliyatini tashkil etish va uslubiyati bilan shug‘ullanadigan fan bibliografiya fani deb ataladi. Bibliografiya taraqqiyotini turli xil bibliografik ma’lumotnoma adabiyotlarini tuzadigan maxsus tashkilotlar (bibliografiya xizmati) tizimi ta’minlaydi.

Bibliografiyashunoslik uslubi bibliografik ishda qo‘llaniladigan qoidalarni ishlab chiqadi. eng yangi uslub va texnika vositalarini bibliografik qo‘llanmalar tuzish va bibliografiya xizmati ko‘rsatishga tadbiq etadi. Bibliografiyashunoslikning tashkiliy bo‘limi vazifasi mamlakatda bibliografiya xizmati tizimini yaratish, rejalashni takomillashtirish, muvofiqlashtirish, bibliograf mehnatini ilmiy tashkil etishdan iborat.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

**Savollar.**

1. Bibliografiya nima?
2. Jahonning yirik tarixiy bibliografiyalari haqida Internet veb-sahifalaridan ma’lumot to‘plang.
3. O‘zbekistonda bibliografiyashunoslikning rivoji haqida nimalarni bilasiz?

**Tayanch iboralar:** Biblio, graphos, adabiyot, alfavit, ro’yhat, adabiyotlar ro’yhati, raqamli tartib, mantiqiy tartib, katalog, ilmiy malumotnoma apparati.

**Adabiyotlar**

1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кириш. Ўкув қўлланма. – Т., 2006.
2. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
3. Симон К.Р. Исгория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Халикова Р.Х. Развитие вшсшего исторического образования и науки в Узбекисгане (На примере исторического факультета ТашГУ (1935-1994 гг). Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Т., 1995.
6. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.

## 6-MAVZU: KUTUBXONALAR VA ULARNING FAOLIYATI

Reja

1. Kutubxonalar tarixi.
2. Kutubxonalarning asosiy vazifalari va adabiyotlarni joylashtirish tartibi.
3. O‘zMU Ilmiy kutubxonasi.
4. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga yozuvning paydo bo‘lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo‘lyozma va keyinchalik yozma kitoblarning ko‘payishi kutubxonalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida yangi bilim va ko’nikmalar xosil qilishni ko’zda tutadi.

**E’tibor bering :** Yozuvning paydo bo‘lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo‘lyozma va keyinchalik yozma kitoblarning ko‘payishi kutubxonalarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimdan paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi II ming yillikda sopol bitiklari saqpangan kutubxonalar bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII asr o‘rtalarida Sharqdagi ko‘p saroylarda, qadimgi Misr va Rim ibodatxonalari qoshida kutubxonalar bo‘lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalarningeng mashhuri Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasidir.

XI-XV asrlarda G‘arbiy Evropada universitet kutubxonalari tashkil topdi. Uyg‘onish davrida gumanizm g‘oyalarining kuchayishi bilan antik qo‘lyozmalarga bo‘lgan qiziqish ortdi. Shaharlarda tashkil etilgan kutubxonalardan shaharlik fuqarolar foydalanishgan. Mutlaq monarxiya davrida qator qirollarning kutubxonalari kitoblar saqlanadigan yirik muassasalarga aylana borgan hamda ma’lum shaxslar uchun foydalanishga ruxsat berilgan. O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi I ming yillikning so‘nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo‘lgan. Dastlabki kutubxonalar hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunoniston va ularga qo‘shni bo‘lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan, o‘sha davrdagi mavjud qo‘lyozmalar bilan ham tanish bo‘lgan. O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari saqlanmagan. Beruniyning xabar berishicha, kitob xazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davri (VII-IX asrlar)da yo‘q qilib yuborilgan.

O‘zbekiston Respublikasida kutubxonaiing ommaviy, ilmiy va maxsus turlari bor. Ommaviy kutubxonalar adabiyotlarni saralash va keng kitobxonlar ommasiga etkazish, faoliyatida turli kitobxonlar guruhlariga mo‘ljallangan kitoblarni targ‘ib qilish va o‘qishni boshqarishda faol va ta’sirchan usullarni qo‘llaydi. Bu guruhga O’zbekiston ma’daniyat va sport ishlar vazirligi tizimidagi shahar va qishloq kutubxonalari, kasaba uyushmalari korxonalardagi kutubxonalari, klublar, madaniyat uylaridagi kutubxonalar kiradi.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

**Savollar.**

1. Kutubxonalar va ularning ma’naviyathamda madaniyat rivojidagi ahamiyatini ko‘rsating.
2. Kutubxonalarda adabiyotlarni joylashtirish tartibi haqida ma’lumot to‘plang.
3. O‘zbekistondagi yirik ilmiy kutubxonalar tarixiga oid nimalarni bilasiz?

**Tayanch iboralar:** Kitob, stelyaj, kutubxona, sopol, milliy, manba , ARM, AKM, bibliografiya, katalog.

**Adabiyotlar**


1. Агеев А.И. Автор жадвали. – Т., 1954.
2. Абрамов К.И. История библиотечного дела. – М., 1959.
3. Алишер Навоий номли Ўзбекистон ССР Давлат халқ кутубхонаси. –Т,; Ўздавнашр. 1958.
4. Баранов П.А.Фундаментальная библиотека Среднеазиатского Гос, Университета в 1928 г.// Приложение к бюллетеню САГУ, Bbin. 18. –Т., 1929.
5. Карклина Н. Оммавий кутубхонанингсправка-библиографик иши. –Т.: ЎзССР Давлат ўқув-педагогик нашриёти. 1940.
6. Кутубхона техникаси минимуми. – Т.: Ўздавнашр. I960.
7. Кормилицьж А.И. Рукописнме коллекции и библиотеки на территории Узбекистана эпохи средневековья. – Т., 1993.
8. Охунжонов Э. О. Туркистонда ўрта аср кутубхоначилик ва библиография ишлари маданияти. –Т., 1994.
9. Қосимова 0., Қодирова Ё. Кутубхоначилик ва библиографияга оид терминларнинг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи. 1970.
10. Қосимова 0. Ўзбекисгонда кутубхоначилик иши тарихи. –Т., 1992.
11. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши. –Т., 1989.


## 7-MAVZU: ADABIYOTLAR QIDIRISH USLUBI

Reja

1. Qidirish tushunchasi va mohiyati
2. Adabiyotlarni qidirsh usullari
3. Adabiyotlarni topishda yo'l ko'rsatgichlarning o'rni

**Darsning maqsadi:** Talabalarda adabiyotlarni topish ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

**E'tibor bering:** Talabalar o`zlari tanlagan mavzusiga oid tarixiy adabiyotlar, manbalarni to`plash va ularni qayta ishlash jarayonida kutubxona va

zarur hollarda, tegishli arxivlarda ishlaydilar. Talaba zimmasiga olgan dastlabki vazifalar qatoriga tanlangan mavzu bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, asarlari hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, farmoyishi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonuni, qarori yoki o`zgacharoq ifodalaganda mavzuga taalluqli rasmiy adabiyotlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash kiradi. Keyin tanlangan mavzudan kelib chiqib, mavzuga bevosita yaqin adabiyotlarni o`rganishga kirishiladi. Chunki har bir kurs ishi yozishga kirishgan talaba tanlagan mavzusi bo`yicha mavjud tarixiy adabiyotlar, manbalarni chuqur o`rgangani, keyingi yillarda tarixshunoslik bu borada qanchalik oldinga ketganini yoki oqsayotganini asoslay olishi zarur. Bu o`z navbatida, talabalar tomonidan yoziladigan kurs ishi, o`zining tutgan o`rniga ko`ra, talabaning yuqori darajada nazariy bilimlaridan dalolat berishi zarur. Shuningdek, talaba tanlagan mavzusini yoritishda egallagan tarixiy–nazariy bilimi, voqea va hodisalar, shaxslar hamda tarixiy sanalarga tanqidiy yondashuvini, mavzuga oid adabiyot hamda manbalarni to`plab, ularni har tomonlama tahlil qilib, xolisona fikr bildirishi hamda ilmiy asoslangan xulosa qila olishini ko`rsata bilishi kerak.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

**Savollar.**

1. Qidirish bu nima?
2. Katalog bu nima?
3. Yo’l ko’rsatgich haqida nimalarni bilasiz?
4. Kutubxonalarni bo’limlarga bo’lishdan maqsad nima?
5. Arxivlarni fondlarga bo’lish deganda nimani tushunasiz.

**Tayanch iboralar:** Search, поиск, qidiruv, katalog, yo’l ko’rsatgich, fond, bo’lim, qism.

**Adabiyotlar**


1. Абрамов К.И. История библиотечного дела. – М., 1959.
2. Агеев А.И. Автор жадвали. –Т., 1954.
3. Алишер Навоий номли Ўзбекистон ССР Давлат халқ кутубхонаси. –Т,; Ўздавнашр. 1958.

4. Баранов П.А.Фундаментальная библиотека Среднеазиатского Гос, Университета в 1928 г.// Приложение к бюллетеню САГУ, Bbin. 18. –Т., 1929.

5. Карклина Н. Оммавий кутубхонанингсправка-библиографик иши. –Т.: ЎзССР Давлат ўқув-педагогик нашриёти. 1940.

6. Кормилицьж А.И. Рукописнме коллекции и библиотеки на территории Узбекистана эпохи средневековья. –Т., 1993.

7. Кутубхона техникаси минимуми. – Т.: Ўздавнашр. I960.

8. Охунжонов Э. О. Туркистонда ўрта аср кутубхоначилик ва библиография ишлари маданияти. –Т., 1994.

9. Қосимова 0., Қодирова Ё. Кутубхоначилик ва библиографияга оид терминларнинг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи. 1970.

10. Қосимова 0. Ўзбекисгонда кутубхоначилик иши тарихи. –Т., 1992.

11. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши. –Т., 1989.

## 8-MAVZU: MALAKAVIY ISHLARNI TAYYORLASHNING MUHIM TAMOYILLARI

Reja

1. Malakaviy ishga qo’yilgan talablar
2. Mavzuga reja tuzish
3. Tarixiylik, xolislik, qiyosiylik tamoyillari tahlili

**Darsning maqsadi:** Talabalarda ilmiy tadqiqot olib borish yuzasidan yangi bilimlar xosil qilish ko’zda tutadi.

**E’tibor bering :** Tarix fanida ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish jarayoni oliy o`quv yurti talabalari uchun birinchi bosqichdanoq boshlanadi. Oliy o`quv yurtlaridagi o`quv jarayonida talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga faol yo`naltirish o`quv rejasining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Insoniyat tarixi nima sababdan ilmiy tadqiqot ishlariga katta e`tibor qaratilishiga juda ko`p misollar orqali javob bera oladi. Chunki har qanday taraqqiyot, kashfiyotlar asosida ilmiy tadqiqot yotadi.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlariga tegishli mavzular bilan birinchi kursdanoq referat, kurs ishi yozish orqali jalb etiladi. Talabalik yillarining dastlabki

bosqichidanoq ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish oxir-oqibatda malakali tarixchi-mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanishlar olib borishdek zahmatli yo`nalishda ma`lum bir ko`nikmalar, tajribalar orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik yillarida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug`ullanganlarning hammasi ham keyinchalik ilmiy ishlar qilishi, ilmiy daraja va unvonlar olishi ko`zda tutilmaydi. Ammo ayni paytda, talabalik yillarida ilmiy tadqiqotga jalb etish oxir-oqibatda tadqiqotchining manbalar, ilmiy adabiyotlar bilan kengroq va chuqurroq tanishishiga imkon yaratadi. Bu esa, o`z navbatida, har bir kishi dunyoqarashi va tarixiy mushohadasining kengayishi, keyinchalik qaysi sohada ishlashidan qat`iy nazar, qiyosiy tahlil ko`nikmasiga, tanqidiy xulosalar chiqara olishga undaydi. Albatta, talabalik yillarida boshlangan ilmiy tadqiqotga ko`nikma, yillar davomida ilmiy tashnalikka, ayrim shaxslar uchun bir umrlik hatti-harakatga, tarixiy kashfiyotlarga olib kelishi mumkin.

Oliy o`quv yurtida ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish talabani ilmiy ijod bilan shug`ullanishga, o`z ustida mustaqil ishlashga, olgan bilimlarini bir tizimga solishga, umumlashtirishga, mustaqil ilmiy mushohada yuritishga o`rgatadi. Ilmiy tadqiqot talabada yana tarixiy manbalarni mustaqil tahlil qilish, qiyinchiliklarni engish, o`zini o`zi boshqarish, ilmiy izlanish natijasi uchun kurashga, yangi tadqiqotlar ustida o`ylashga, uning echimi yo`lida qat`iy hatti-harakatlarga undaydi.

Talabalarni oliy o`quv yurtida ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish (TITI) quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:Talabalarni o`quv rejasi asosida, o`quv jadvaliga kiritilgan holda ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish. Talabalarning o`z xohishiga ko`ra, o`quv jarayonidan xoli vaqtda, ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug`ullanishi.

Oliy o`quv yurtlarida o`quv rejasi asosidagi TITI quyidagi vazifalarni o`z ichiga oladi: talabalarni ilmiy izlanish asoslari, xususan usullari bilan tanishtirish; ilmiy reja tuzish va uni amalga oshirish yo`llarida ishlash; ilmiy adabiyotlar ustida ishlashga ko`nikma hosil qilish; yozma va arxiv manbalari bilan ishlashga yo`naltirish; davriy matbuot materiallarini tahlil qilishga o`rgatish; yig`ilgan manba va adabiyotlar asosida materiallarni umumlashtirish, tegishli tarzda bir tizimga solish; mavjud tarixiy manba va adabiyotlarga tayangan holda, o`z tadqiqotini mantiqan bir-birini to`ldiradigan, asosli, erkin va ilmiy tarzda yozma bayon qilish tartib-qoidalari bilan tanishtirish; ilmiy tadqiqot xulosalari yuzasidan og`zaki bayon etish ko`nikmalarini shakllantirish.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Tamoyil deganda nimani tushunasiz?
2. BMI bu nima?
3. Tarixiylik prinsipiga tarif bering.
4. Xolislik tamoyili haqida ma'lumot bering.
5. BMIga reja tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak.

**Tayanch iboralar:** tamoyil, yondashuv, qiyosiy taxlil, tahlil, tarixiylik, xolislik.

**Adabiyotlar**


1. Саидбобоев 3. Мутахассисликка кирнш. Ўкув қўллаима. – Т,, 2006.
2. Ардашев Н.Н. Дипломатика. -., 1908.
3. Ахмедов Б. А. Ўзбекистан тарихи манбалари.-Т.: Ўкитувчи. 2001.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Исмоилов М. Ҳужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. (ўқув қўлланма) - Т.: "Академнашр", 2010. - 64 б.
6. Как писать курсовую и дипломную работу. – М., 1968.
7. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
8. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: Человек-текст-семиосферз-история. – М., 1996.
9. Магистрлик диссертаиияси хақида методик кўрсатма. Тузувчилар: академик Мамадолимов А.Т., ф-м. ф. и. Турсунов И.Т. – Т., 2000.
10. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. - Т., ВАК РУз. 2003.
11. Обичкин О.Г. Дипломная работало истории.– М., 1975.

12. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.
13. Рейс М.И. Теоретические и методологические вопросы истории.– М., 1961.
14. Румянцева М.Ф. Теория истории.– М., 2002.
15. Саидкулов Т.С. У рта Осиётарихининг тарих навислипщан лавхазар. – Т.: Ўқитувчи. 1993.
16. Саъдиев А. XIX асрдаТуркистонда тарих фани.– Т.: Ўздавнашр. 1960.
17. Симон К.Р. Иегория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
18. Тош Д. Стремление к истине: Как овладеть мастерством историка. Пер. с англ.– М., 2000.

## 9-MAVZU: MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLARNI O'RGANISH

Reja

1. Manba tushunchasi.
2. Kutubxona va arxiv manbaalarini o'ziga xos hususiyatlari
3. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganishda e'tibor beriladigan jihatlar tahlili

**Darsning maqsadi:** Talabalarda adabiyotlar ustida ishlash ularni to'plash, saqlash va qayta ishlash malakalarini xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Talaba oliy o`quv yurtidagi ilk ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarga qatnay boshlashi bilan kitob bilan ishlashni, ya`ni uni o`rganish, tahlil qilish, ko`plab kitoblar, o`quv qo`llanmalar orasidan eng zarurini tanlashni bilishi kerak. Talaba kitobni shunchaki ko`z yugurtirib emas, balki uning ma`no-mohiyatini, tarixiy sana, atama, voqea-hodisalardagi o`xshashlik, tizimlilik mavjud ekanligi yoki umuman tarixiylikka, davriylikka, voqealar rivojini poyma-poy, bir-biriga bog`lanmagan holda bayon qilinganiga e`tibor qarata bilishi, boshqacharoq ifodalaganda, tarixiy tahlil qila olishi lozim. Albatta, har qanday muvaffaqiyat zamirida nazariy va amaliy bilim, sa`y–harakatlar yotadi. Shu asosda ilmiy tadqiqotni amalga oshirish ko`nikmalari shakllana boradi.

Tarixiy adabiyotlarni o`rganish shunchaki sana va voqealarni, tarixiy atamalarni yodlab olishdangina iborat bo`lmaydi. Har qanday holatda kitob o`qish, bu ilmiy–ijodiy mehnat deb qaralishi kerak. Kitob o`qishga shunday munosabatda

bo`lish talaba tomonidan o`qiganini tahlil qilib borishga, o`ylashga, mushohada yuritishga undaydi. Talaba o`qiyotgan kitobini o`zlashtira olishida ma`lum bir tarixiy voqealar, sanalar, atamalar, qarorlar, hujjatlarni, tarixiy shaxslarga munosabatini yozib borishi kerak. Ammo yozib borish deganda to`la–to`kis ko`chirib olish emas, balki o`qiganini o`z so`zi bilan qisqa, ma`no-mazmunini va dalilini yo`qotmay qog`ozga tushirish demakdir. Bu ham ma`lum ma`noda talabani tahlil qilish, nimani yozib olish keragu, qaysi qismi shart emasligini ajrata olish, muallif fikrini o`z mushohadasi vositasida lo`nda ta`riflashga undaydi.

Talaba tomonidan tarixiy adabiyotlar nomi, mazmunini yozib borish usuli uning tadqiqot ishlarini yo`lga qo`yishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ilmiy adabiyotlarni yozib borish, mustaqil ta`lim, amaliy mashg`ulotlarda foydalanishga, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlashda foydalanishga qaratilgan bo`ladi. Ana shu yozib borish uslubi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Oddiy va kengaytirilgan ish reja.

2. Ko`chirma.

3. Konspekt.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

**Savollar.**

1. Adabiyot tushunchasiga ta’rif bering.
2. Adabiyot va manbaaning farqli hususiyatlarini nimalarda ko’rasiz.
3. Arxiv manbaalarining birlamchilik haqida ma’lumot bering.
4. Adabiyotlarni to’plashda nimalarga e’tibor berish kerak.
5. Bugungi kundagi zamonaviy manbashunos olimlar haqida ma’lumot bering.

**Tayanch iboralar:** manba, adabiyot, arxiv, noyob, qadimiy, antik manbalar,Gerodot, Kvit Kursiy Ruf, Poliyen, Xou Xan Shu, Strabon, Ibn Battuta, Ibn Xavqal, “Tarixi Buxoro”, “Osor ul-boqiya”, “Tarixi Bayhaqiy”.

## Adabiyotlar


1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кирнш. Ўкув қўллаима. – Т„ 2006.
2. Ардашев Н.Н. Дипломатика. -., 1908.
3. Ахмедов Б. А. Ўзбекистан тарихи манбалари.-Т.: Ўкитувчи. 2001.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Исмоилов М. Ҳужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. (ўқув қўлланма) - Т.: “Академнашр”, 2010. - 64 б.
6. Как писать курсовую и дипломную работу. – М., 1968.
7. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
8. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: Человек-текст-семиосферз-история. – М., 1996.
9. Магистрлик диссертаиияси хақида методик кўрсатма. Тузувчилар: академик Мамадолимов А.Т., ф-м. ф. и. Турсунов И.Т. – Т., 2000.
10. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. - Т., ВАК РУз. 2003.
11. Обичкин О.Г. Дипломная работало истории.– М., 1975.
12. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.
13. Рейс М.И. Теоретические и методологические вопросы истории.– М., 1961.
14. Румянцева М.Ф. Теория истории.– М., 2002.
15. Саидкулов Т.С. У рта Осиётарихининг тарих навислипщан лавхазар. – Т.: Ўқитувчи. 1993.
16. Саъдиев А. XIX асрдаТуркистонда тарих фани.– Т.: Ўздавнашр. 1960.
17. Симон К.Р. Иегория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
18. Тош Д. Стремление к истине: Как овладеть мастерством историка. Пер. с англ.– М., 2000.

## 10-MAVZU: ISHNI YOZISHGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUV

Reja

1. BMI yozishning ilmiy metodikasi
2. Ilmiylik prinsipi
3. Tarixiylik prinsipi

**Darsning maqsadi:** Talabalarda bitiruv malakaviy ish yozishda ilmiy uslubiy jihatdan to'g'ri yondashishga doir bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Ilmiy tadqiqot har qanday sharoitda xolislikni, u yoki bu hukmron mafkura tazyiqlarisiz ish yuritishni talab qiladi. Tarix fani bo`yicha ilmiy tadqiqotni amalga oshirayotgan tadqiqotchi oldida murakkab va ayni paytda qiziqarli vazifalarni bajarish mas`uliyati turadi. Murakkabligiga sabablar qatorida o`tmishni, ma`lum tarixiy manbalar orqali, sinchkovlik bilan o`rganish, o`rganilayotgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy-siyosiy, madaniy ahvoldan xabardor bo`lish, yig`ilgan manbalarni qiyosiy tahlil qilish va shular asosida voqea-hodisalarga, ayrim hollarda, munozarali muammolarga xolisona baho berishdek vazifalarni keltirish mumkin. Tarixni o`rganishdagi qiziqarli va mas`uliyatli tomoniga kelsak, har qanday tarixiy ilmiy tadqiqotga qo`l urgan izlanuvchi uchun o`tmishni o`rganish va bu jarayonga xolisona yondashish, ma`lum bir xulosalarga ega bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ana shu xolislik, tarixiy dalillar, voqea-hodisalarni ob`ektiv, o`rab-chirmamasdan, mafkuraviy tazyiqlardan xoli yoritishda tarixchi ma`lum bir tamoyillarga e`tibor qaratishi lozim.

Ilmiy ishni yozishga kirishgan tadqiqotchi uchun eng avvalo **ilmiylik** uslubiga rioya qilish darkor. Tarix fanida ilmiylik uslubi nimalarni o`z ichiga oladi? **Birinchidan,** tadqiqot jarayonida yig`ilgan dalillar, voqea-hodisalarga taalluqli materiallar, manbalar, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlarni tarixiy nuqtai nazardan, ob`ektiv o`rganish, hech qanday o`zboshimchaliklarsiz, qo`shimchalarsiz, tarix "tarozisi"ga solish va bularga shaxsiy munosabat, ehtiroslardan xoli tarzda ilmiy baho bera olish kerak bo`ladi. **Ikkinchidan,** tarix fani bo`yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda voqea-hodisalarni "sanash", shaxslarning tarixda tutgan o`rnini qayd etish bilangina cheklanmaslik kerak. Shu voqea-hodisalar sababi va oqibati, shaxslarning ma`lum bir tarixiy davrdagi tutgan o`rni bo`yicha nazariy mushohadalarni ilgari surish, tarixiy jarayonlar hamda shaxslar faoliyatidagi ijobiy, salbiy oqibatlarga ilmiy baho beriladi. Bu o`z navbatida bugungi kun va kelajak uchun muhim ahamiyatga ega bo`lib, tarixiy

voqea-hodisalar bo`yicha chuqur mulohaza yuritishga hamda tegishli saboqlar chiqarishga undaydi.

Tarix fanidagi ilmiy tadqiqot yo`nalishida **tarixiylik** uslubi ham katta ahamiyatga ega. Tarixiylik tadqiqotchidan dalillarni, o`z davrida ro`y bergan voqea-hodisalarni tahlil qila bilish, ya`ni ularning vujudga kelish sabab va bahonalarini, bundagi tarixiy shart-sharoitni, ob`ektiv va sub`ektiv holatlarni tarixiylik bilan bog`lab o`rganishni taqozo etadi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Metodika nima?
2. Imiy uslubiy yondashuv deganda nimani tushunasiz?
3. Tadqiqotchi etikasi haqida ma'lumot being.
4. Xolislik prinsipi haqida ma'lumot bering.
5. Tarixiylik prinsipi deganda nimani tushunasiz?

**Tayanch iboralar:** xronos, tarixiy xronologiya, etika, biz, prinsip, metodika, snoska, iqtibos, intelektual mulkdan foydalanish madaniyati.

**Adabiyotlar**


1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кирнш. Ўкув қўллаима. – Т,, 2006.
2. Ардашев Н.Н. Дипломатика. -., 1908.
3. Ахмедов Б. А. Ўзбекистан тарихи манбалари.-Т.: Ўкитувчи. 2001.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Исмоилов М. Ҳужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. (ўқув кўлланма) - Т.: "Академнашр", 2010. - 64 б.
6. Как писать курсовую и дипломную работу. – М., 1968.
7. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
8. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: Человек-текст-семиосферз-история. – М., 1996.

9. Магистрлик диссертаиияси хақида методик кўрсатма. Тузувчилар: академик Мамадолимов А.Т., ф-м. ф. и. Турсунов И.Т. – Т., 2000.
10. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. - Т., ВАК РУз. 2003.
11. Обичкин О.Г. Дипломная работало истории.– М., 1975.
12. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.
13. Рейс М.И. Теоретические и методологические вопросы истории.– М., 1961.
14. Румянцева М.Ф. Теория истории.– М., 2002.
15. Саидкулов Т.С. У рта Осиётарихининг тарих навислипщан лавхазар. – Т.: Ўқитувчи. 1993.
16. Саъдиев А. XIX асрдаТуркистонда тарих фани.– Т.: Ўздавнашр. 1960.
17. Симон К.Р. Иегория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
18. Тош Д. Стремление к истине: Как овладеть мастерством историка. Пер. с англ.– М., 2000.

## 11-MAVZU: BITIRUV ISHIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA HIMOYA QILISH

Reja

1. BMIning dastlabki himoyasiga qo'yilgan talablar
2. BMIning rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar
3. BMIning himoya qilishning tartib va qoidalari

**Darsning maqsadi:** Talabalarda bitiruv malakaviy ishini himoya qilishni tartib, qoida talablari xususida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Oliy ta`lim tizimi o`quv rejasida ko`rsatilgan ilmiy tadqiqot ishlarining so`nggi bosqichida bitiruv malakaviy ishi yozish ko`zda tutilgan. Tarixiy tadqiqot ishlarining referat, kurs ishlari bosqichlaridan keyin 4-bosqich yakunida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash, bu talabalik yillarida ilmiy tadqiqot olib borish usullarini o`rgangani, Vatanimiz tarixidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,

madaniy jarayonlarni va jah on tarixiga oid fanlarni, maxsus kurslarni to`laqonli o`zlashtirgani hamda tegishli fanlar bo`yicha amaliy, pedagogik mashg`ulotlarni to`la o`tgandan keyin amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ishi yozishda qo`yiladigan asosiy talablar: talaba tomonidan yoziladigan bitiruv malakaviy ishi o`z xususiyatiga ko`ra, bitiruvchining yillar davomida olgan nazariy-amaliy bilimlarini umumlashmasi, xususan tarixiy tadqiqotlarga oid olgan bilimlari asosida mustaqil yondasha olishi, ya`ni tanlagan ilmiy tadqiqoti mavzusini yoritishda tarixiylik, davriylik talablariga, tarixiy voqealarni xolisona talqin qila olish qobiliyatini ko`rsata olishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishi orqali talaba tanlagan mavzusini yoritishda tarixiy voqealar, sanalar, tarixiy shaxslar va hozirgi davrning dolzarb muammolarini tutgan o`rniga ko`ra xolisona, har qanday mafkuralar ta`siridan xoli tarzda yondasha bilishini, tarixiy jihatdan masalani qiyosiy tahlil qila olishi, tarixiy voqealarga tanqidiy munosabatda bo`la olishini isbotlay olishi lozim. Bitiruv malakaviy ishi mustaqil olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasi bo`lib, unda talaba tarix fanining umumiy va aniq masalalarini erkin ajrata olishi, mavzusiga oid yozma manbalarni, tarixiy adabiyotlar, arxiv manbalarini tanlay olish va qiyosiy tahlil qilish, shu paytga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tanqidiy o`rganish, mustaqil mushohada asosida o`z ilmiy ishini oxiriga etkazish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishida talabaning yuqori darajada nazariy-amaliy bilimlarni egallagani, xususan tarix fani bo`yicha olib borayotgan ilmiy tadqiqoti mavzusini yoritishda tarixiy dalillar, voqealarni asosli, ma`lum bir manbalarga suyangan holda, xolisona, mustaqillik mushohadasiga tayangan holda olib bora olishini ko`rsatishi zarur.Bitiruv malakaviy ishi mavzulari tegishli kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan, kafedradagi mutaxassislar malakaviy yo`nalishini ham hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va bu **“Mavzular jamg`armasi”** kamida uch yillik bitiruvchilar sonidan kelib chiqishi kerak. Bitiruv malakaviy ishi mavzulari tegishli tarzda kafedra majlisi, fakul’tet va oliy o`quv yurti ilmiy kengashlarida muhokama qilinib, mavjud talabalar soniga muvofiqlashtirib tasdiqlanadi.

Tarixiy **“Mavzular jamg`armasi”** dolzarb, talabani mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga undaydigan, talaba tanlagan ixtisoslik bo`yicha ilmiy yoki amaliy masalalarni qamrab olgan bo`lishi kerak. Bitiruvchi talaba **“Mavzular jamg`armasi”**dan ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda o`z ilmiy tadqiqoti uchun mavzu tanlaydi. Bitiruv malakaviy ishi rejasi va uning yoritilishi, xususan uning ilmiy-amaliy darajasi ta`lim standart (me`yor, andoza)lariga javob berishi shart. Ushbu ilmiy tadqiqotni bajarilishi talaba tomonidan mustaqil tarzda ilmiy izlanish olib borish, tarixiy yo`nalishdagi muammolar bo`yicha hali echimini kutayotgan masalalarni ko`ra bilishi, tahlil qila olishi, tarixiy tahlil asosida solishtira olishini hamda ularning echimida olayotgan ixtisosligi bo`yicha faoliyat ko`rsata olishi haqida ma`lum bir dalolat berishi lozim. Bitiruv malakaviy ishining barcha talablarga javob berishi amalda talabaning oladigan ixtisosligi bo`yicha

chuqur ilmiy–nazariy tayyorgarlikka ega ekanligini namoyon etishi zarur. Buning uchun talaba bitiruv malakaviy ishida ilmiy tadqiqot olib borish borasida o`z ko`nikmalarini namoyish eta olishi kerak. Bitiruv malakaviy ishining mazmuni mavzusidan kelib chiqib, albatta, bitiruvchining salohiyatiga, mavzu bo`yicha adabiyot va manbalarning mavjudligiga ham bog`liq bo`ladi. Bitiruv malakaviy ishida mavzu bilan bog`liq nazariy jihatlar, muammolar va ularning echimi tuzilgan reja va uning echimidagi ilmiy izlanishlariga asoslanadi. Bitiruv malakaviy ishi bo`yicha ilmiy tadqiqot izlanuvchisi davlat attestatsiya hay`atiga (*ilmiy rahbarining yozma xulosasi bilan – mualliflar*) bir nusxa o`z ishini topshiradi. Bitiruv malakaviy ishida bittadan tashqi va ichki taqriz bo`lishi tavsiya etiladi.

**Qo‘llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”,” O‘z-o‘zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o’rganamiz”, “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

## Savollar.

1. BMIning rasmiylashtirilishining tartiblari va qoidalari haqida ma’lumot bering?
2. BMI nechta so’zdan iborat bo’lish kerak?
3. Intelektual mulk nima?
4. BMIning rejasiga qo’yiladigan talablar nimalardan iborat?
5. BMI himoyasini tashkillashtirish tartib va qoidalari haqida ma’lumot bering.

**Tayanch iboralar: BMI**, reja, bob, paragraf, xulosa, kirish, dolzarblik, ilmiy yangilik, predmet, vazifa, obyekt, o’zganilganlik darajasi.

## Adabiyotlar


1. Саидбобоев 3. Мутахассисликка кирнш. Ўкув қўллаима. – Т,, 2006.
2. Ардашев Н.Н. Дипломатика. -., 1908.
3. Ахмедов Б. А. Ўзбекистан тарихи манбалари.-Т.: Ўкитувчи. 2001.
4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Исмоилов М. Ҳужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. (ўқув қўлланма) - Т.: “Академнашр”, 2010. - 64 б.
6. Как писать курсовую и дипломную работу. – М., 1968.

7. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
8. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: Человек-текст-семиосферз-история. – М., 1996.
9. Магистрлик диссертаиияси ҳақида методик кўрсатма. Тузувчилар: академик Мамадолимов А.Т., ф-м. ф. и. Турсунов И.Т. – Т., 2000.
10. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. - Т., ВАК РУз. 2003.
11. Обичкин О.Г. Дипломная работало истории.– М., 1975.
12. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.
13. Рейс М.И. Теоретические и методологические вопросы истории.– М., 1961.
14. Румянцева М.Ф. Теория истории.– М., 2002.
15. Саидкулов Т.С. У рта Осиётарихининг тарих навислипщан лавхазар. – Т.: Ўқитувчи. 1993.
16. Саъдиев А. XIX асрдаТуркистонда тарих фани.– Т.: Ўздавнашр. 1960.
17. Симон К.Р. Иегория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
18. Тош Д. Стремление к истине: Как овладеть мастерством историка. Пер. с англ.– М., 2000.

## 12-MAVZU: BIBLIOGRAFIYANING ASOSIY TURLARI

Reja

1. Bibliografiya tushunchasi
2. Alfavitli bibliografiya
3. Raqamli bibliografiya

**Darsning maqsadi:** Talabalarda bibliografiya va uning asosiy turlari haqida yangi bilim va ko'nikmalar xosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering :** Tadqiqotchi uchun bibliografiya ustida ishlash jarayoni mavzu tanlanayotgan davrdayoq boshlanadi. Talaba tanlagan tadqiqot mavzusi qay darajada adabiyot va manbalar bilan ta`minlanganligini aniqlashga kirishadi. Bu

jarayon uzoq davom etadi. Chunki tadqiqot yoritishdan avval boshlangan bu ish keyinchalik, ya`ni mavzuni yoritish jarayonida ham davom etaveradi. Hech bir tadqiqotchi tanlagan mavzusini yoritishga kirishmasdan avval hamma adabiyot va manbalarni yig`ib bo`ldim deya olmaydi. Mavzuni yoritishga kirishgan tadqiqotchi – talaba o`z ilmiy ishining har bir bo`g`ini, paragrafida yana qo`shimcha adabiyotlar, manbalar ustida ishlash zarurligiga ishonchi komil bo`lib boradi. Agar tadqiqotchi o`z mavzusini to`la yoritgunga qadar ham manba va adabiyotlar ustida ish olib boraveradi, deyilsa mubolag`a bo`lmaydi.

Mavzuga oid bibliografiya tuzishda chop etilgan kitoblardagi foydalangan adabiyotlar ro`yxati, ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan iqtiboslar, maqolalar, ilmiy to`plamlardagi adabiyotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Bibliografiya tuzishda O`zbekiston Respublikasi davlat Kitob palatasi tomonidan chiqarilgan qo`llanmalar ham rol' o`ynaydi. Ushbu qo`llanmalarda respublikada chiqqan adabiyotlar va maqolalar ko`rsatilgan. Shuningdek, "O`zbe-kiston SSR kitoblarining yilnomasi" ko`rsatkichining ko`plab jildlarida sovet hokimiyati yillarida chop eilgan kitoblar nomi qayd etilgan. Bundan tashqari, O`zbekiston tarixiga oid maxsus bibliografik qo`llanmalar ham mavjud. Xususan, tarixning barcha asosiy muammolari yuzasidan tavsiya etiladigan tarixiy adabiyotlarning bibliografik ro`yxatlari e`lon qilingan. Bularni kutubxonalarning bibliografiya bo`limlariga murojaat qilib topish mumkin.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum"," O'z-o'zini nazorat", "Klaster", "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing"*

**Savollar.**

1. Bibliografiya so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
2. Bibliografiya deganda nimani tushunasiz?
3. Adabiyotlar ro'yhati haqida ma'lumot bering.
4. Alfavitli biblografiya haqida nimalarni bilasiz?
5. Raqamli bibliografiya haqida ma'lumot bering.

**Tayanch iboralar:** biblios, graphos, alfavitli, raqamli, mantiqiy.

**Adabiyotlar**

1. Саидбобоев З. Мутахассисликка кирнш. Ўкув қўллаима. – Т,, 2006.
2. Ардашев Н.Н. Дипломатика. -., 1908.
3. Ахмедов Б. А. Ўзбекистан тарихи манбалари.-Т.: Ўкитувчи. 2001.

4. Гулыга А. В О предмете исторической науки. Вопросы истории. 1964, № 4.
5. Исмоилов М. Ҳужжатшунослик ва Марказий Осиё дипломатикаси. (ўқув қўлланма) - Т.: “Академнашр”, 2010. - 64 б.
6. Как писать курсовую и дипломную работу. – М., 1968.
7. Коган Л.Н. О специфике применения критерия практики в исторической науке.// Практика-критерий истины науке. - М., 1960.
8. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: Человек-текст-семиосферз-история. – М., 1996.
9. Магистрлик диссертаиияси ҳақида методик кўрсатма. Тузувчилар: академик Мамадолимов А.Т., ф-м. ф. и. Турсунов И.Т. – Т., 2000.
10. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. - Т., ВАК РУз. 2003.
11. Обичкин О.Г. Дипломная работало истории.– М., 1975.
12. Основы методики научно-исследовательской работы,– М., 1998.
13. Рейс М.И. Теоретические и методологические вопросы истории.– М., 1961.
14. Румянцева М.Ф. Теория истории.– М., 2002.
15. Саидкулов Т.С. У рта Осиётарихининг тарих навислипщан лавхазар. – Т.: Ўқитувчи. 1993.
16. Саъдиев А. XIX асрдаТуркистонда тарих фани.– Т.: Ўздавнашр. 1960.
17. Симон К.Р. Иегория иностранной библиофафии.– М.. 1963.
18. Тош Д. Стремление к истине: Как овладеть мастерством историка. Пер. с англ.– М., 2000.

